



YANGI O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK, DINIY KONFERENSIYALARARO MUNOSABATLAR

Qambaraliyeva Saboxat Azamjon qizi

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 1 kurs TXT-BU-25 guruh talabasi*

Annotatsiya: “Yangi O‘zbekiston sharoitida diniy bag‘rikenglik hamda dinlararo hamkorlik aloqalari” mavzusini yoritadi. Unda mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida diniy erkinlik va bag‘rikenglik tamoyillarining mustahkamlanishi tahlil qilinadi. O‘zbekistonda turli diniy konfessiyalarning tinch-totuv faoliyat yuritishi, davlatning ular o‘rtasidagi hamkorlik va muloqotni rivojlantirishga qaratilgan siyosati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, dinlararo konferensiyalar va xalqaro uchrashuvlar orqali o‘zaro tushunishni kuchaytirish, jamiyatda tolerantlik madaniyatini shakllantirish hamda radikal g‘oyalar tarqalishining oldini olish masalalariga e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, diniy erkinlik, bag‘rikenglik madaniyati, dinlararo hamkorlik.

Kirish

Diniy bag‘rikenglik bugungi global jamiyatda eng muhim va dolzarb ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. U faqatgina diniy qarashlarga hurmat bilan yondashish emas, balki turli e‘tiqod va dunyoqarashlarning bir jamiyat doirasida tinch-totuv yashashini ta‘minlaydigan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Bu tushuncha ijtimoiy ongning murakkab shakli bo‘lib, unda mafkuraviy qarashlar, madaniy an‘analar hamda psixologik munosabatlar o‘zaro uyg‘unlashadi va turli dinlarning qonuniy hamda teng huquqli mavjudligini kafolatlashga xizmat qiladi. Diniy bag‘rikenglikning shakllanishi ko‘p omillarga bog‘liq. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi, davlatning huquqiy asoslari, konstitutsiyaviy erkinliklarning amalda ta‘minlanishi hamda demokratik tamoyillarning rivojlanishi muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, shaxsning ma‘naviy saviyasi, madaniy darajasi va ta‘lim-tarbiya jarayoni ham bag‘rikenglikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, globallashtirish jarayonida turli din vakillarining bir hududda yashashi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi diniy bag‘rikenglikni yanada dolzarb qiladi. Bunday sharoitda stereotiplar va noto‘g‘ri tasavvurlarni kamaytirish, o‘zaro hurmat va muloqotni rivojlantirish jamiyat barqarorligi uchun muhim hisoblanadi.

Metod



Shuningdek, qiyoslash usuli asosida mamlakatimizdagi diniy bag‘rikenglik tajribasi boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Bu esa mavjud yondashuvlarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot jarayonida tarixiy yondashuv ham qo‘llanildi. Ya’ni, O‘zbekistonda diniy erkinlik va bag‘rikenglikning shakllanish jarayoni, ayniqsa mustaqillikdan keyingi davr va “Yangi O‘zbekiston” bosqichidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari orqali to‘plangan ma’lumotlar tartibga solinib, asosiy xulosalar ishlab chiqildi.

Natijalar

Zardushtiylilikning muqaddas manbasi hisoblangan “Avesto”da “Qulog‘ing bilan eshit, qalbing bilan angla, toki har bir inson o‘z e’tiqodini ongli ravishda tanlasin” mazmunidagi g‘oya alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fikr qadimgi dunyoda insonning e’tiqod erkinligini tan olish va diniy huquqlarni e’tirof etishning eng erta ifodalaridan biri sifatida qaraladi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida diniy bag‘rikenglik va e’tiqod erkinligi g‘oyalari ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojining turli bosqichlarida o‘z aksini topgan. Buni bir qator yorqin misollar orqali ko‘rish mumkin. Ko‘plab allomalar xalqlar va shaxslarning tarixiy, madaniy hamda ijtimoiy sharoitlarini inobatga olgan holda din tanlash erkinligi g‘oyasini ilgari surganlar. Jumladan, Forobiy turli xalqlarning dunyoqarashi va tasavvurlari bir-biridan farq qilishi mumkinligini ta’kidlab, shu sababli fazilatli jamiyatlar turlicha diniy qarashlarga ega bo‘lishi va baribir yagona ezgulik va baxt g‘oyasiga intilishi mumkinligini qayd etadi. Bugungi globallashuv jarayonida diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish hamda konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa jamiyat barqarorligi va ijtimoiy totuvlikni ta’minlashda asosiy omillardan hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va dinlararo hamjihatlikka alohida e’tibor qaratilib, bu yo‘nalish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, bu holat jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, bag‘rikenglik, insonparvarlik va diniy totuvlik muhiti yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu maqsadda 2018-yil 16-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-sonli farmon qabul qilindi. Ushbu hujjat diniy ta’lim tizimini uzluksiz rivojlantirishni, ya’ni boshlang‘ich diniy ta’limdan tortib oliy va undan keyingi bosqichlarga bo‘lgan uzviy tizimni shakllantirishni nazarda tutadi.

Mulohaza



Umuman olganda, O‘zbekistonda millatlar va dinlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik hamda hamjihatlik muhitining qaror topishi mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashning muhim omillaridan biridir. Jamiyatda turli din vakillarining teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi ijtimoiy totuvlikni mustahkamlab, osoyishtalik va farovonlikni yanada oshiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan ekstremizm va radikal qarashlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar turli millat va e‘tiqod vakillari o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada bunday muhit yurtimiz taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini ham yanada yuksaltiradi.

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Mamlakatda turli din vakillarining erkin faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgani va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikning kengaygani jamiyatda o‘zaro hurmat va totuvlikni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, diniy konfessiyalararo muloqotlarning faollashuvi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirib, uni bag‘rikeng va ochiq jamiyat sifatida namoyon etmoqda. Turli forum va konferensiyalar esa dinlar o‘rtasida tushunish, muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, diniy bag‘rikenglik hamda konfessiyalararo aloqalarning mustahkamlanishi Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo hamjihatlik va ma‘naviy taraqqiyotning muhim omili bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Murtazaeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma-T., Universitet, 2007 yil.
2. Avazov Komil Hollievich, Barqaror jamiyatni shakllantirishning ma‘naviy- axloqiy jihatlari Xalqaro gumanitar fanlar ijtimoiy fanlar va ta‘lim jurnali 2017,4(10): 1-9.
3. Komil Avazov Zamonaviy jamiyatning ichki va tashqi tahdidlari, xavfsizligi va barqarorligi hamda ularning yaqinligi//Maqola “Rossiya va musulmon dunyosi” byulleteni nashr qilish uchun taqdim etilgan. //Rossiya va musulmon dunyosi. 2017 yil.No3 (297).
4. Xollievich AK (2017) Tahdidga chidamli jamiyatni shakllantirishning ma'naviy jihatlari. J Socialomics 6: 214.doi:10.1472/2167-0358.1000214